



UDK 37.015.3:316.6

Dilfuza BOZOROVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi
E-mail:bozorovadilfuza385@gmail.com

Psixologiya fanlari doktori, professor D.Arzikulov taqrizi asosida

MAS‘ULIYATLILIK: PEDAGOG KASBIY KAMOLOTINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILI

Аннотация

Mazkur maqolada pedagog kasbiy faoliyatida mas‘uliyatlilikning ijtimoiy-psixologik mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda kasbiy samaradorlikka ta‘siri empirik tadqiqot asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda O.V. Muxlinaning “Javobgarlikning ko‘p o‘lchovli funksional diagnostikasi” so‘rovnomasi hamda Dj. Rotterning “Sub‘ektiv lokus nazorati” shkalasining modifikatsiyalashirilgan varianti qo‘llanildi. Olingan natijalar pedagoglarda mas‘uliyatlilikning dinamik, motivatsion, kognitiv va regulativ komponentlari kasbiy samaradorlik bilan o‘zaro bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Jins va ta‘lim muassasasi turiga ko‘ra ayrim statistik ahamiyatli farqlar aniqlandi.

Kalit so‘zlar: mas‘uliyatlilik, kasbiy kamolot, ijtimoiy-psixologik omil, pedagog shaxsi, sub‘ektiv nazorat, kasbiy samaradorlik.

ОТВЕТСТВЕННОСТЬ: СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФАКТОР ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГА

Аннотация

В статье рассматривается социально-психологическая сущность ответственности в профессиональной деятельности педагога и её структурные компоненты как фактор профессиональной эффективности. В исследовании использованы методика О.В. Мухлиной «Многоуровневая функциональная диагностика ответственности» и модифицированная шкала локуса контроля Дж. Роттера. Результаты показали взаимосвязь динамического, мотивационного, когнитивного и регулятивного компонентов ответственности с профессиональной эффективностью. Выявлены статистически значимые различия по полу и типу образовательного учреждения.

Ключевые слова: ответственность, профессиональное развитие, социально-психологический фактор, личность педагога, локус контроля, профессиональная эффективность.

RESPONSIBILITY: A SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTOR IN THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF A TEACHER

Annotation

This article analyzes the socio-psychological nature of responsibility in teachers' professional activity and its structural components as a factor of professional effectiveness. The study employed O.V. Mukhlina's Multidimensional Functional Diagnostics of Responsibility questionnaire and a modified version of J. Rotter's Locus of Control Scale. The findings indicate that dynamic, motivational, cognitive, and regulatory components of responsibility are significantly related to professional effectiveness. Statistically significant differences were identified based on gender and type of educational institution.

Keywords: responsibility, professional development, socio-psychological factor, teacher personality, locus of control, professional effectiveness.

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlar inson kapitali rivojini davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab berdi. Jamiyat taraqqiyoti, uning siyosiy va iqtisodiy barqarorligi fuqarolarning intellektual salohiyati, ma‘naviy yetukligi hamda ijtimoiy mas‘uliyat darajasiga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, yosh avlodni har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, yuksak kasbiy va axloqiy fazilatlariga ega shaxs sifatida tarbiyalash ta‘lim tizimining strategik vazifasi hisoblanadi. Bu jarayonda pedagog shaxsining kasbiy kamoloti, uning ijtimoiy-psixologik sifatleri, xususan, mas‘uliyatlilik darajasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, yoshlarga oid davlat siyosati izchil va qat‘iy ravishda amalga oshirilib, ularning intellektual va ma‘naviy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan[1]. Mazkur vazifalar Harakatlar strategiyasi[3], Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida

Qonun[4] hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z ifodasini topgan. Shu nuqtai nazardan, pedagogning kasbiy kamoloti tarkibida mas‘uliyatlilikni ijtimoiy-psixologik omil sifatida tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Zero, zamonaviy ta‘lim sharoitida mas‘uliyatli pedagogga yosh avlodning intellektual, ma‘naviy va fuqarolik salohiyatini samarali shakllantirishga qodir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mas‘uliyat fenomeni shaxs psixologiyasi va kasbiy rivojlanish muammolarida markaziy kategoriyalardan biri sifatida talqin etiladi. Tadqiqotning normativ-g‘oyaviy asoslari Shavkat Mirziyoyev asarlari va ma‘ruzalarida ilgari surilgan yoshlar siyosati, ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar salohiyatini yuksaltirish g‘oyalariga tayanadi[2]. Ushbu manbalarda mas‘uliyat shaxsning ma‘naviy-axloqiy fazilati va fuqarolik pozitsiyasi sifatida asoslanadi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda mas‘uliyat muammosi asosan “professional responsibility” va “accountability”

konseptlari doirasida tahlil qilingan. Karseth B. (2006), Bates L.J. (2007), Macfarlane B. (2014), Fenvik T. va Edvarde R. (2016), Solbrette T.D. tadqiqotlarida oliy ta'lim tizimida kasbiy javobgarlik chegaralari, institutsional nazorat, avtonomiya va hisobdorlik munosabatlari yoritilgan[5,6]. Mazkur yondashuvlar mas'uliyatni tizimli-institutsional mexanizm sifatida tahlil qilib, uning tashkiliy va huquqiy asoslarini ochib beradi. Biroq ushbu tadqiqotlarda mas'uliyatning shaxsiy-psixologik tabiati, uning motivatsion, kognitiv va refleksiv komponentlari yetarlicha chuqurlashtirilmagan. Natijada, pedagogning ichki kasbiy pozitsiyasi va ijtimoiy rolini uyg'unlashtiruvchi omil sifatida mas'uliyat muammosi kompleks ko'rinishda tadqiq etilmagan.

Rossiya psixologiyasida mas'uliyat muammosi shaxs faoliyati va xulq-atvorini tartibga soluvchi integrativ xususiyat sifatida o'rganilgan. S.V.Bikov, S.A.Gavrulushkin, S.F.Anisimov, T.N.Sidorova, R.I.Kosolapov, V.S.Markov, J.E.Zavadskiy, A.Plaxotniy, L.V.Shevchenko, K.Muzdibaev, M.S.Stogovich, L.I.Dementiy, O.V.Muxlina, O.N.Bolshakovlar ishlarida mas'uliyat ichki va tashqi lokus nazorati, axloqiy me'yorlar, intizom, majburiyat hissi hamda kognitiv-emotsional-xulqiy komponentlar birligi sifatida tahlil etilgan[7,8]. Bu yondashuv mas'uliyatning psixologik strukturasi tavsiflashda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, ko'p hollarda u umumiy shaxsiy sifat sifatida qaralib, aniq kasbiy kontekstda, xususan pedagogik faoliyat tizimida uning determinantlari va rivojlanish dinamikasi yetarli darajada yoritilmagan.

Yosh davrlari psixologiyasi doirasida O.Tenyaeva (2011) deviant xulqli o'smirlarda mas'uliyat shakllanish xususiyatlarini tahlil qilgan, O.A.Kazanseva esa shaxsiy mas'uliyatning inson hayotiy faoliyati va shaxs kamoloti jarayonidagi ahamiyatini asoslab bergan[9]. Ushbu ishlar mas'uliyatning ontogenetik rivojlanishini tushunishda muhim nazariy asos yaratadi. Biroq ularda kasbiy ijtimoiylashuv bosqichida, ayniqsa pedagogik faoliyat sharoitida mas'uliyatning transformatsiyasi va kasbiy identifikatsiya bilan bog'liq jihatlari maxsus tadqiq ob'ekti sifatida ajratilmagan.


Milliy ilmiy maktab vakillari tomonidan ham mas'uliyat turli yo'nalishlarda o'rganilgan. D.G.Muxamedova

ta'lim menejmentida boshqaruv faoliyatini optimallashtirishning ijtimoiy-psixologik omillarini tahlil qilgan, U.B.Sultonov kasbiy motivlar va xizmatga tayyorlikning psixologik determinantlarini asoslagan, A.A.Saidov rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligini rivojlantirish muammolarini yoritgan². N.S.Safaev mas'uliyat kategoriyasining faol (pozitiv) va retrospektiv (negativ) jihatlari psixologik-falsafiy nuqtai nazardan differentsiatsiya qilgan, N.S.Sagindikova esa talabalarda mas'uliyatning gender tafovutlarini tadqiq etgan[10,11].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotlar mas'uliyat muammosining alohida qirralarini ochib bersa-da, pedagog shaxsining kasbiy kamoloti tizimida mas'uliyatni ijtimoiy-psixologik integrativ omil sifatida modellashtirish masalasi yetarli darajada konseptualashtirilmagan. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holada tadqiqotlarni o'rganish muhim.

Tahlil va natijalar. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, mas'uliyat fenomeni turli fanlar kesimida keng o'rganilgan bo'lsa-da, uning pedagog kasbiy kamoloti tizimida ijtimoiy-psixologik omil sifatida namoyon bo'lish mexanizmlari yetarlicha empirik asoslanmagan. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotning mazkur bosqichi mas'uliyat tushunchasining mazmuniy va struktura xususiyatlarini aniqlash hamda pedagoglar kasbiy faoliyatida uning psixologik namoyon bo'lishini empirik jihatdan tahlil qilishga qaratildi.

Etimologik jihatdan "mas'uliyat" atamasi arab tilidan olingan bo'lib, "javob bermoq", "javobgar bo'lmoq" ma'nolarini anglatadi. Psixologiyada mazkur tushuncha shaxsning faoliyat sub'ekt sifatidagi pozitsiyasi, qaror qabul qilishdagi ongli tanlovi, axloqiy me'yorlarga rioya etishi va o'z xatti-harakatlari oqibatlarini anglashi bilan bog'liq holda talqin etiladi. Mas'uliyat kognitiv (anglash va baholash), emotsional (burch, vijdon, g'urur, xavotir hislari) hamda xulqiy (me'yoriy faoliyat, intizom, o'zini boshqarish) komponentlar birligi sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan u nafaqat psixologiya, balki sotsiologiya, huquqshunoslik va falsafa sohalarida ham tadqiq ob'ekti hisoblanadi. Ta'lim tizimida faoliyat samaradorligi va sifat ko'rsatkichlari bevosita pedagoglarning kasbiy javobgarligi darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.




Tadqiqotning obyektini, maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda pedagoglar kasbiy faoliyatida mas'uliyatning psixologik jihatlari o'rganish maqsadida empirik tadqiqot tashkil etildi. Mazkur tadqiqotda mas'uliyat darajasi va uning struktura komponentlarini aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik metodikalar tanlandi va amaliyotga joriy etildi. Tadqiqotda jami 100 nafar pedagog ishtirok etdi. Jins taqsimotiga ko'ra, 89,2 % (90 nafar) ayol pedagog va 10,8 % (11 nafar) erkak pedagog sinaluvchi sifatida qatnashdi. Olingan natijalar qo'llanilgan metodikalar shkalalari bo'yicha statistik va sifat jihatdan tahlil qilindi. Tahlil jarayonida pedagoglarda mas'uliyatning kognitiv, emotsional va xulqiy komponentlari o'zaro bog'liq holda namoyon bo'lishi kuzatildi. Ayniqsa,

kasbiy burchni anglash va faoliyat natijalari uchun shaxsiy javobgarlikni qabul qilish darajasi yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etdi. Bu holat pedagog kasbiy kamoloti tizimida mas'uliyatning regulyativ va motivatsion funksiyasi ustuvor ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim sinaluvchilarda mas'uliyatning emotsional komponenti (tashvish, xavotir, yuqori burch hissi) yuqori darajada namoyon bo'lishi professional zo'riqish xavfini keltirib chiqarishi mumkinligi aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida sinaluvchilarni turli jihatlar bo'yicha kompleks tahlil qilish maqsadida ko'p shkalali psixodiagnostik metodikalar qo'llanildi. Pedagoglar kasbiy faoliyatida mas'uliyat darajalarini yosh bo'yicha taqsimotini

aniqlash uchun tadqiqotga ta'lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi 100 nafar pedagog jalb qilindi.



Olingan natijalarga ko'ra, yosh kategoriyalari bo'yicha sinaluvchilar taqsimoti quyidagicha ko'rinishda bo'ldi:

- 20–30 yosh oralig'ida faoliyat olib boruvchi pedagoglar – 44 nafar (43,7%),
- 30–40 yosh oralig'ida faoliyat olib boruvchi pedagoglar – 37 nafar (36,8%),
- 40–50 yosh oralig'ida faoliyat olib boruvchi pedagoglar – 19 nafar (18,8%).

Tahlil shuni ko'rsatdiki, eng katta ulush 20-40 yosh oralig'idagi pedagoglar hissasiga to'g'ri keladi, bu pedagogik jamoalarda yoshlar va o'rta yoshdagi mutaxassislar faoliyatining samaradorligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mas'uliyat darajasining yosh bilan bog'liq dinamikasi kasbiy tajriba, shaxsiy motivatsiya va emotsional resurslar bilan uyg'unlikda tahlil qilinishini talab qiladi.

Tadqiqotda sinaluvchi sifatida turli yoshdagi pedagoglar qatnashdi, bu esa natijalarda ob'ektning turli yo'nalishlari va individual xususiyatlarini aks ettirish imkonini berdi. Yosh davrlari va kasbiy staj kabi sifatlar tadqiqot natijalarini tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular mas'uliyatning kognitiv, emotsional va xulqiy komponentlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Sinaluvchilar 20–30, 30–40 va 40–50 yoshdagi pedagoglardan iborat bo'lib, shuningdek, 50 yoshdan yuqori pedagoglar ham tadqiqotda ishtirok etishdi. Eng katta diqqat yangi faoliyat boshlagan pedagoglarga qaratildi, chunki ularning ish tajribasi va kasbiy malaka ko'nikmalari hanuz yetarlicha rivojlanmaganligi ta'lim samaradorligiga ta'sir etishi mumkin. Shu bilan birga, bir necha yildan buyon kasbiy faoliyat olib borayotgan pedagoglarda fan predmetlarini tushunish va amaliyotda qo'llash qobiliyati yuqori bo'lib, bu natijalarning samaradorlik va yuqori mas'uliyat darajasida namoyon bo'lishini ta'minlashi mumkin.

Individual psixologik holatlar, kasbga munosabat, shaxsiy ehtiyojlar, qiziqishlar va boshqa subektiv omillar ham tadqiqot natijalarining variativligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu jihatdan, yosh va kasbiy tajribani hisobga olgan holda pedagoglarda mas'uliyatning turlicha namoyon bo'lishini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tadqiqot natijalarini interpretatsiya qilishda yosh va staj faktorlarini integrativ ravishda hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Psixologik nazariyada mas'uliyat shaxsning o'z harakatlari natijalarini belgilangan maqsadlarga, jamiyatda yoki jamoada qabul qilingan me'yorlarga muvofiq baholash qobiliyati sifatida ta'riflanadi.

Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, turli yoshdagi pedagoglarda mas'uliyatning ushbu tarkibiy qismlari turlicha namoyon bo'ladi. Yangi faoliyat boshlagan pedagoglarda kognitiv va samarali komponentlar nisbatan past bo'lishi mumkin, bu esa ta'lim samaradorligiga ta'sir qiladi. Bir necha yildan buyon faoliyat olib borayotgan pedagoglarda esa

fidokoronalik, vijdonlilik va mas'uliyatning barcha komponentlari yuqori darajada namoyon bo'lib, bu pedagogik jarayonlarda samarali natijalarga erishishga imkon beradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagoglarda mas'uliyatning barcha tarkibiy komponentlari – dinamik, motivatsion, kognitiv, samarali, hissiy va tartibga soluvchi – kasbiy faoliyatning samaradorligi va ta'lim sifatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Yosh va kasbiy staj faktorlari mas'uliyatning har bir komponentida namoyon bo'lish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, yangi faoliyat boshlagan pedagoglarda kognitiv va samarali komponentlar nisbatan pastroq bo'lib, ta'lim jarayonida qaror qabul qilish va vazifani samarali bajarishda qiyinchiliklar keltirishi mumkin. Bunga qarshi, tajribali pedagoglarda mas'uliyatning barcha komponentlari yuqori darajada namoyon bo'lib, bu pedagogik jarayonlarda samaradorlik va ustuvor natijalarga erishishga imkon beradi.

Individual psixologik xususiyatlar, shaxsiy qiziqishlar va kasbiy motivatsiya ham natijalardagi variativlikni aniqlaydi. Shuningdek, pedagoglarning mas'uliyatining yuqori darajada bo'lishi nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarning psixologik rivojlanishi, faollik va ijtimoiy-ehtiyojlarini qondirishga ham yordam beradi. Bu jihat pedagoglarning professional kamoloti, jamoaviy samaradorlik va ta'lim muassasalarida barqaror pedagogik muhit yaratishda muhim omil hisoblanadi.

Takliflar sifatida; birinchidan, pedagoglarning kasbiy malakasi va mas'uliyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish orqali yangi faoliyat boshlagan pedagoglar uchun kognitiv va samarali komponentlarni shakllantirish bo'yicha treninglar va amaliyotlar tashkil etilsa, shuningdek, tajribali pedagoglar uchun esa emotsional va vijdonlilik komponentlarini mustahkamlashga qaratilgan seminarlar, kouching va malakani yangilash kurslari amalga oshirilishi maqsadga muvofiq,

ikkinchidan; ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ichki motivatsiyani kuchaytirish orqali pedagoglarning ish jarayonida samarali fikrlash va mas'uliyatni oshirish uchun rahbariyat tomonidan individual qo'llab-quvvatlash tizimlari yanada kuchaytirish,

uchinchidan; mas'uliyat darajasi va kasbiy samaradorlikni baholashda yosh, staj va individual psixologik xususiyatlar asosiy mezon sifatida qo'llash hamda pedagoglar uchun o'z faoliyatini tahlil qilish va muntazam refleksiya qilish imkoniyatini beruvchi amaliyot dasturlari joriy etilib, ularning professional o'sishini ta'minlash imkoniyatini yaratish,

to'rtinchidan; hamkorlik va tajriba almashinuvi sohasida yangi va tajribali pedagoglarning bilim va tajribasini integratsiya qilish uchun turli amaliyot markazlari va seminarlarda hamkorlik tizimlari yaratish orqali pedagoglar orasida kasbiy hamkorlikni mustahkamlash natijasida mas'uliyatning barcha komponentlarini rivojlantirishga

ko'maklashash va ta'lim jarayonida samaradorligini oshirish imkoniyati yaratiladi..

Mazkur takliflar pedagogik jarayonda mas'uliyatni rivojlantirish va ta'lim sifatini yuqori darajada ta'minlashga

qaratilgan real va amaliy chora-tadbirlar sifatida qaralishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlarga oid davlat siyosatiga bag'ishlangan ma'ruzalar va chiqishlar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanlangan asarlar va ma'ruzalar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston, 2017
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentabrda O'RQ-406-sonli “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonuni.
5. Solbrette N.D., Karseth B. Professional responsibility-an issue for higher education.-Higher Education , -№52 (1), 2006-p.95;Bates, M Bates L.J. Preparing students for the profession workplace : Who has responsibility for what .-Asia pacific Journal of Cjperetive Education ,2007-№8(2).-p.121-129.Cebtral Professionl Responsibility.-New Horizons of praxis, 2004.-P.72
6. Fenwick T.,-Edwards R.Exploring the impact of digital technologies on professional responsibilities and education -European Education Reserch Journal,2006-№ 15(1).-P.117-131.
7. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. Том 2. – Санкт-Петербург – Москва, 2000. – С. 480.
8. Быков С.В. Социально-психологическая регуляция ответственности личности: диссертация... доктора психологических наук. – Казань, 2006. – С. 23–24.
9. Теняева О.В. Особенности ответственности подростков с девиантным поведением: автореферат диссертации... кандидата психологических наук. – Москва, 2011. – 25 с.
10. Сафаев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодежи: диссертация доктора психологических наук. – Ташкент: УзНУ, 2005. – С. 159.
11. Mukhamedova D. G., & Abdullajanova D. S. (2020). The actuality of the gender aspect of the manager's constructive interaction in the conflicting situation. Journal Of Critical Reviews, 7(12), 228-231.